

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



Ro'yhatga olindi: BD-5112200-3.02  
2019 yil "17" 08.

MIKROIQTISODIYOT VA MAKROIQTISODIYOT

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5112200 – Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi

TOSHKENT – 2019

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil "4" 10" 10 dagi 892-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019-yil "17" 08" 08 dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

#### Tuzuvchilar:

G.A. Abdilakimov – Nizomiy nomidagi TDPU "Iqtisodiy bilim asoslari o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti., PhD.

N.I. Rustamov – Nizomiy nomidagi TDPU "Iqtisodiy bilim asoslari o'qitish metodikasi" kafedrasida kata o'qituvchisi., PhD.

X.T. Jumanov – Nizomiy nomidagi TDPU "Iqtisodiy bilim asoslari o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti.


#### Taqrizchilar:

B.T. Salimov - Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Sanoat iqtisodiyoti" kafedrasida professori, iqtisod fanlari doktori.

R.A. Isayev - Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti «Korporativ boshqaruv» kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019-yil 29 06" 06 dagi 11-sonli bayonnomasi)

"Ushbu dastur muvofiq ravishda tasdiqlanadi"  
Kengash raisi Iyudina V.O.

 B. Boyqutubov

## **I. O'quv faning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni**

Mustaqillikning o'tgan yillari mobaynida O'zbekiston ochiq, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida ulkan yutuqlarga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar kishilar ongi va ruhiyatini o'zgartirmoqda, ularni yangicha fikrlash, bozor iqtisodiyotini chuqurroq idrok etish va bozor talablariga moslashib ishlash va yashashga yo'naltirilmogda, tadbirkorlikka intilish keng tus olmoqda. Bu esa o'z navbatida bozor ilmi iqtisodiy bilimlarni chuqurroq o'rganishga katta ehtiyoj va qiziqishni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodi - bizning xalqimiz oxirgi yillarda boshdan kechirayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi zaruriy vosita hisoblanadi. Bozor iqtisodining o'rnatilishi og'ir ish, yo'li ko'p qirralidir. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ro'y berganligi mazkur jarayonni yanada murakkablashtirdi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi bilan jamiyatda bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmini, turli mulkchilikka asoslangan korxonalarining xo'jalik yuritish faoliyatini, ularning bozor sharoitdagi harakatini, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish yo'llarini va shu asosda samarali faoliyat yuritishlarini tadqiq qilish fanning dolzarbligini belgilaydi. Yuqorida ta'kidlangan masalalarni hal etishda hamda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Mikroiqtisodiyot" fanining ahamiyati beqiyosdir.

## **II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari**

Fanni o'qitishdan asosiy **maqsad**: talabalarda iqtisodiy sub`ektlarning bozordagi hatti-harakati va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish hamda firma foydasini maksimallashtiruvchi ishlab chiqarish hajmini tanlash bo'yicha nazariy va amaliy tushunchalarni hosil qilish.

### **Fanning vazifalari:**

- bozor iqtisodiyoti qonunlari va bozor sub`ektlarining har xil bozor tuzilmalaridagi harakat faoliyati hamda ularning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish;
- bozordagi talab va taklif to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida bozorni tahlil qilish va xulosalar chiqarish;
- iste'molchining bozordagi hatti-harakati va ishlab chiqaruvchi firmalarning iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish yo'llarini o'rganish;
- bozor muvozanati o'zgarishi va unga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq qilish;
- bozor sharoiti o'zgarishi oqibatlarini prognoz qilish va baholash.
- talabalarga milliy hisoblar tizimi asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash usullari va makroiqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini o'rgatish;
- talabalarni jami talab va jami taklif, iste'mol va jamg'arish funksiyalari, davlat xarajatlari va soliq multiplikatorlarini davlat makroiqtisodiy siyosatiga ta'sirini

ko'rsatish;

- talabalarga makroiqtisodiy muvozanat va uning modellari haqida to'liq ma'lumot berish hamda ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy modellar mohiyatini tushuntirish va boshqalar.

“Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiradigan masalalar doirasida bakalavr:

- zamonaviy bozor iqtisodiyotining ishlashi va rivojlanishi, talab va taklif modeli asosida taqchil resurslarini taqsimlanish mexanizmi, raqobatlashgan bozorlarning asosiy xususiyatlarini va firmalarni ushbu bozorda harakat qilish qoidalari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni va ularni hisoblash shartlari, tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi, byudjet-soliq va pul-kredit siyosatlarining mohiyati, tashqi savdo siyosatining nazariy asoslari va vositalari haqida *bilimga*;

- bozor iqtisodiyotining ishlashi, rivojlanishi hamda salbiy va ijobiy tomonlari, turli bozor strukturalarida firmaning harakati qoidalari, bozorning ishlash samaradorligi va unga ta'sir qiluvchi omillari, taqchil resurslarni taqsimlanish tamoyillari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning turli bozor sharoitlarida va turli oraliqlarda foydani maksimallashtirish shartlari, pul bozorida muvozanatning vujudga kelishi, makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri, byudjet-soliq va pul-kredit siyosatlarining qo'llanilishi, ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlari to'g'risida *ko'nikmaga*;

- bozordagi talab va taklif to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida bozorni tahlil qilish va xulosalar chiqarish, statistik ma'lumotlar asosida talab va taklif funksiyalarini tuzish va ular asosida bozordagi holatni tahlil va bashorat qilish, raqobatlashgan va raqobatlashmagan bozorda firmalarni xarakatini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda makroiqtisodiy modellarni qo'llash, makroiqtisodiy siyosatning ijo'iy va salbiy oqibatlariga baho berish, makroiqtisodiy siyosatning natijalarning bashorat qilish *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

### **III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **1-MODUL. Iqtisodiyotning bazis tushunchalari, talab va taklif nazariyasining asoslari, iste'molchi tanlovi**

##### **1-mavzu. Iqtisodiyotning bazis tushunchalari**

Iqtisodiy ehtiyoj tushunchasi. Iqtisodiy ne'matlar va ularning xususiyatlari. O'rinni bosuvchi ne'matlar. To'ldiruvchi ne'matlar. Iqtisodiy resurslar va ularning turlari. Tadbirdorlik qobiliyati tushunchasi. Al'ternativ xarajatlar va ularni aniqlash. Qaytarilmaydigan xarajatlarning vujudga kelishi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning ahamiyati. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i. Ne'matlarni bir-biri bilan almashtirish (transformatsiya) koeffitsienti. Pozitiv va normativ tahlil. Tovarlar oqimi modeli. Buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot. Bozor iqtisodiyoti.

## **2-mavzu. Talab va taklif tahlili asoslari**

Talab tushunchasi. Talab chizig'i. Talab funktsiyasi. Bir omilli va ko'p omilli talab funktsiyalari. Talabga ta'sir qiluvchi omillar. Talab miqdorining o'zgarishi. Talabning o'zgarishi. Taklif va taklif miqdori. Taklif chizig'i. Taklif funktsiyasi. Bir omilli va ko'p omilli taklif funktsiyalari. Taklifga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif miqdorining o'zgarishi. Taklifning o'zgarishi. Talab va taklif qonunlari. Bozor muvozanati.

## **3-mavzu. Iste'molchi tanlovi nazariyasi**

Iste'mol nazariyasida ne'mat tushunchasi. Iste'molchi tanloviga ta'sir qiluvchi omillar. Naflik tushunchasi. Iste'molchi ehtiyojini qondirish darajasi. Naflik funktsiyasi. Umumiy naflik, chekli naflik. Chekli naflikning kamayishi qonuni. Befarqlik egri chizig'i. Befarqlik chiziqlari kartasi va uning xususiyatlari. Byudjet chegarasi va uning o'zgarishi. Byudjet tenglamasi. Byudjet chizig'i. Byudjet chizig'i yotqlik burchagi. Iste'molchi tanlovi masalasi. Naflikni maksimallashtirish.

## **2-MODUL. Ishlab chiqarish xarajatlari, qisqa va uzoq muddatli firma faoliyatining tahlili asoslari**

### **4-mavzu. Ishlab chiqarish nazariyasi**

Ishlab chiqarish jarayoni. Ishlab chiqarish texnologiyasi. Ishlab chiqarish omillari va ularning turlari. Ishlab chiqarish funktsiyasi tushunchasi. Izokvanta tushunchasi. Izokvantalar kartasi va uning xususiyatlari. Izokvantaning yotpiqligi burchagi. Qisqa va uzoq muddatlardagi ishlab chiqarish. Bir o'zgaruvchan omil (mehnat) asosida ishlab chiqarishni tashkil etish. O'zgaruvchi omilning Yalpi o'rtacha, chekli mahsulotlari va ular o'rtasidagi bog'liqlik. Kapitalning chekli mahsuloti. Mehnatning chekli mahsuloti. Ishlab chiqarish omillari chekli mahsuldorligining kamayish qonuni. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro almashuvi. CHEkli texnologik almashtirish normasi. Izokosta tushunchasi. Ishlab chiqarish omillari sarfmi minimallashtirish. Minimallashtirish masalasini grafik usuldagi echimi va optimallik sharti.

### **5-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari**

Korxonaning qisqa muddatli va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati. Xarajatlar to'g'risida tushuncha. Boy berilgan imkoniyatlar va al'ternativ xarajatlar. Qaytarilmaydigan xarajatlar. Iqtisodiy xarajatlar, buxgalteriya xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Iqtisodiy foyda va normal foyda. Yalpi xarajatlar. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar. O'rtacha xarajatlar. CHEkli xarajatlar. Ishlab chiqarish xarajatlari chiziqlari. Uzoq va qisqa muddatlardagi xarajatlar grafiklari. Qisqa va uzoq muddatdagi xarajatlarning o'zaro bog'liqligi. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash, O'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari grafiklarining o'zaro joylashuvi.

### **6-mavzu. Raqobatlashgan bozorda qisqa va uzoq muddatli oraliqda firma foydasini maksimallashtirish va uning taklifi**

Raqobatlashgan bozor va uning shartlari. Firmaning, Yalpi, o'rtacha va chekli daromadlari. Korxonaga foydasi. Korxonaga foydasini maksimallashtirishni nazariy jihatdan asoslash va uni grafik usulda tahlil qilish. Firma foydasini maksimallashtirishning umumiy sharti va mukammal raqobatlashgan bozor uchun sharti. Firmaning bezarar ishlash nuqtasi. Firma xarajatlarini minimallashtiradigan holat. Firmaning yopilish nuqtasi. Firmaning chekli mahsulot ishlab chiqarish qoidasiga amal qilishi. Firma taklifi. O'rtacha uzoq muddatli xarajat va uning xususiyatlari. Uzoq muddatli oraliqda ishlab chiqarish hajmini tanlash. Tarmoqqa qarashli tipik firma muvozanati. Tarmoqning muvozanat holati. Tarmoqning taklifi. Xarajatlari o'sayotgan tarmoqning taklif chizig'i, xarajatlari o'zgarmas bo'lganda tarmoqning taklif chizig'i. Xarajatlari kamayayotgan tarmoqning taklif chizig'i. Ishlab chiqarish masshtabi. Firmaning uzoq muddatli o'rtacha xarajatining kamayishiga va o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar.

### **3-MODUL. Milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, ularning mutanosibligi va iqtisodiy o'sish**

#### **7-mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni xisoblash**

Yalpi ichki mahsulot. Sof milliy mahsulot. Milliy daromad. Shaxsiy daromad. Ixtiyordagi daromad. Daromadlar buyicha YalMni xisoblash. Xarajatlar buyicha YalMni xisoblash. Ishlab chikarish usuli orkali YalMni hisoblash. Yalpi milliy mahsulot. Nominal va real YalM. Narxlar indeksi. Mexnat bozori. Ishsizlik tushunchasi. Ishsizlikning turlari. Ishsizlik darajasi. YaMM uzilishi. Ishsizlikning iqtisodiy okibatlari. Oukun konuni. Inflyatsiya moyiyati, xisoblanishi va turlari. Inflyatsiya sur'ati. Inflyatsiyaning sabablari, pulning mikdoriy nazariyasi. Inflyatsiyaning sur'atlariga kura turlari. Talab inflyatsiyasi: moyiyati va modeli. Talab va taklif inflyatsiyasining kushilishi modeli. Kutilgan va kutilmagan inflyatsiya. Inflyatsiya va foiz stavkalari. Fisher samarasi. Inflyatsiyaning ijtimoiy okibatlari. Inflyatsiya va ishsizlik. Fillips egri chizigi Inflyatsiya sur'ati va ishsizlik darajasi urtasidagi optimal mutanosiblik.

#### **8-mavzu. Yalpi talab – Yalpi taklif modeli**

Yalpi talab tushunchasi. AD egri chizigi. Baxo omillari. Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasi va import xaridlari samarasi. AD egri chizigi traektoriyasi. Pulning mikdoriy nazariyasi. Baxolar darajasi va Yalpi talab urtasidagi teskari bog'liklik. Baxodan boshka omillarning Yalpi talabga ta'siri. Iste'mol xarajatlaridagi, investitsiya xarajatlaridagi, davlat xarajatlaridagi va sof eksportdagi uzgarishlar. Yalpi taklif tushunchasi va egri chizigi. Yalpi taklifdagi uzgarishlar. Yalpi taklifning klassik modeli. AS egri chizigining vertikaligi. AS egri chizigining ishlab chikarish omillari va texnologiyalar ta'sirida siljishi. Yalpi taklifning keynscha modeli. Yalpi talab ta'sirida Yalpi taklif egri chizigidagi siljishlar. Ishlab chikarishning muvozanatli xajmi. Umumiy muvozanat tushunchasi. AD - AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizmi.

### **9-mavzu. Iste`mol, jamgarish va investitsiya funksiyalari**

Daromad va iste`mol urtasidagi uzaro bog`liklik. Jamgarish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamgarish. Iste`molga (APC) va jamgarishga urtacha moyillik (APS). Iste`molga (MPC) xamda jamgarishga (MPS) chegaraviy moyillik. «Kuznets topishmogi». «Permanent daromad» kontseptsiyasi. «Xayot davri» kontseptsiyasi. Investitsiya tovarlarining Yalpi talabdagi urni. Avtonom investitsiyalar. Foiz stavkasi. Investitsiyalarga talab funksiyasi. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi boshka omillar. Investitsiyalashga chegaraviy moyillik. Investitsiyalarning bekarorligini belgilovchi omillar. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi. Bozor mexanizmi tomonidan Yalpi talab va Yalpi taklif muvozanati ta`minlashining doimiy emasligi.

### **10-mavzu. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli**

«Daromadlar - xarajatlar» modeli – Keyns xochi. Xakikiy va rejalashtirilgan xarajatlar. Modelni tuzishdagi asosiy shartlar. Sof eksport funksiyasi. Importga chegaraviy moyillik. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi. Tovar moddiy zaxiralarning rejalashtirilmagan uzgarishlari. Xakikiy investitsiyalar va rejalashtirilgan investitsiyalar tengligi. Mul`tiplikator samarasi. Avtonom xarajatlarning mul`tiplikatsiya mezanizmi. Iste`molga chegaraviy moyillik va mul`tiplikatsiya samarasi. Mul`tiplikator formulasi. Retsessiya va inflyatsiyaga xos uzilish. Jamgarish-investitsiya modeli.

## **4-MODUL. Makroiqtisodiy siyosat va uni amalga oshirishning asosiy yo`nalishlari**

### **11-mavzu. Byudjet-soliq va pul-kredit siyosatlari**

Byudjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Yopiq va ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari mul`tiplikatori. Soliq mul`tiplikatori. Balanslashgan byudjet mul`tiplikatori. Soliklarni kamaytirilishi samarasi va davlat xarajatlarini oshirilishi samarasi. Diskret fiskal siyosat. Davlat byudjeti takchilligi va profitsiti. Nodiskret fiskal siyosat. Pul-kredit siyosatining maqsadlari va vositalari. Ochiq bozordagi operatsiyalar va hisob stavkasi. Majburiy zahiralash normasi. Pul-kredit siyosatini o`tkazish mexanizmi. Qat`iy va yumshoq pul-kredit siyosati. O`zbekiston respublikasi pul-kredit siyosatining o`ziga xos xususiyatlari.

### **12-mavzu. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat**

Tashki savdo siyosati: mohiyati, maqsadlari, usullari. Tarif va notarif usullar. Import tariflari. Tariflarning baxolar darajasi, iste`molchilar va ishlab chikaruvchilarga ta`siri. Davlat kurgan yutuk. Tariflarni yoklovchi xamda ularga karshi fikrlar. Yangi paydo bulgan tarmoklarni ximoya qilish. Ichki bandlilik va davlat daromadlarining usishi. Dempingdan ximoya. Tariflarning afzalliklari, kamchiliklari va kullash muammolari. eksportga bojxona tulovlari. Import kvotalari.

Uzbekiston Respublikasi tashkisavdo siyosatining uziga xos xususiyatlari. Ochik iktisodiyotda muvozanatli ishlab chikarish xajmi. Ochik iktisodiyotda Yalpi ishlab chikarish xajmi. Ichki xarajatlar va savdo balansi. Sof eksport. Ichki xarajatlar va milliy ishlab chikarish xajmi. eksport va importning milliy iktisodiyotga ta'siri. eksport va import urtasidagi bog'liklik. Sof eksport va muvozanatli ishlab chikarish xajmi. Ochik iktisodiyotda pul-kredit siyosati.

#### **IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

1. Iqtisodiyotning bazis tushunchalari
2. Talab va taklif tahlili asoslari
3. Iste'molchi tanlovi nazariyasi
4. Ishlab chiqarish nazariyasi
5. Ishlab chiqarish xarajatlari
6. Raqobatlashgan bozorda qisqa va uzoq muddatli oraliqda firma foydasini maksimalashtirish va uning taklifi
7. Yalpi talab – Yalpi taklif modeli
8. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni xisoblash
9. Iste'mol, jamgarish va investitsiya funktsiyalari
10. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli
11. Byudjet-soliq siyosati
12. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy resurslari.
2. Mamlakatimizda intellektual resurslarni shakllantirish siyosati.
3. Mahalliy bozorda o'zaro o'rnini bosuvchi va bir-birini to'ldiruvchi maqsulotlar talabi o'zgarishining tahlili.
4. Mavsumiy tovarlar va ularning narx o'zgaruvchanligi.
5. Turli tovarlarning o'zgaruvchanlik koeffitsientlarini aniqlash.
6. Mahalliy bozordagi muvozanat narxga ta'sir etuvchi omillar.
7. O'zbekistonda ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish.
8. Oilamning byudjet va befarqlik chiziqlari.
9. Cheklangan naflikning so'nib borish qonuni qanday amal qiladi?
10. To'ng'algan xarajatlar tushunchasi va ularning amalda qo'llanilishi.
11. Raqobat va uning turlari.



12. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklari.
13. Mahalliy bozorda amal qiladigan monopol tovarlarni ko'rsatib bering va harakatini baholang.
14. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning korxonalarda qo'llanilishi.
15. Korxonalarni rivojlantirishda investitsiyalarning ta'siri. O'zbekistondagi investitsiya siyosati.
16. O'zbekiston Respublikasida YaIM dinamikasi va tarkibi tahlili.
17. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A. Ouken qonuni.
18. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik. Fillips egri chizig'i.
19. O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya jarayonlarining kechishi va yuritilgan aksilinflyatsiya siyosati.
20. AD-AS modelida makroiqtisodiy muvozanat.
21. O'zbekiston Respublikasida Yalpi talab va Yalpi taklif dinamikasi va tarkiblari tahlili.
22. Pul taklifining kengaytirilgan modeli pul mul'tiplikator.
23. Davlat byudjetining soliqlarga ko'ra tarkibi. Soliq yuki.
24. Soliq siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.
25. Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari: depozitlarni majburiy zahiralash normasi, hisob stavkasi, ochiq bozordagi operatsiyalar.
26. Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari.
27. O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo aylanmasining dinamikasi va tovar strukturasi ko'ra takomillashtirilishi tahlili.
28. O'zbekiston Respublikasining Butunjahon Savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirishini belgilovchi shart-sharoitlar.
29. To'lov balansini qisqa va uzoq muddatli tartibga solish usullari. Markaziy Bankning rasmiy valyuta zahiralari.
30. O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosatining xususiyatlari va natijalari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish, o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

## **VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Фуломов С.С., Алимов Р.Х, Салимов Б.Т., Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Микроиқтисодиёт: Дарслик.-Т.: Шарқ-МАТБАА АК бош тахририяти, 2001 й.
2. Қ.С.Ҳамдамов. Микроиқтисод. Ўқув қўлланма. Тошкент 2001 йил.

3. Пиндайк Р., Рубинфельд Д. “Микроиктисод” Инглиз тилидан таржима. –Т.: Шарк нашриёт МАТБАА АК бош тахририяти, 2002 й.
4. Erkin Egamberdiyev. Mikroiktisodiyot. Toshkent., 2005 yil.

#### Qo‘shimcha adabiyotlar

5. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.// Xalq so‘zi. 16 yanvar 2017 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 7 iyundagi “Har bir oila - tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi Qarori “Xalq so‘zi”, 8.06.2018 y.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. Xalq so‘zi. 8 fevral 2017 yil.
8. Ishmuxamedov A.E., Djumaev Z. A., Jumaev K.X. Makroiqtisodiyot .O`quv qo`llanma - T.: O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2005.–192 b.
9. Ishmuhamedov A.E. «O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti» Darslik. – T.: TDIU, 2005 yil. 320 b.
- 10.N.Maxmudov, M.Asqarova, I.Umarov. Makroiqtisodiy tahlil vaprognozlash. Darslik.Toshkent., 2014 yil.

#### Internet saytlari

19. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
20. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
21. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
22. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
23. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
24. [www.economist.com](http://www.economist.com)
25. [www.worldeconomics.com](http://www.worldeconomics.com).